MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ 9
Мусаев Озоджон Шавкат Огли
MAHALLIY BUDJETNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLARINI BAHOLASH 15
Uktamov Fazliddin Faxriddinovich
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РОЗНИЧНЫХ ОПЕРАЦИЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 19
Султонмуродов Сардорбек Баходирович
OLIY TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 24
Egamov Sevinchbek
TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARI AMALIYOTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 29
B.B. Xanaliyev
SAMARQAND VILOYATIDA TURISTIK KORXONALAR INNOVASION RIVOJLANISHINI SSENARIYLI PROGNOZLASH 33
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna
MILLIY MODA ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA UNI O'ZLASHTIRISH SHARTLARI 38
Yusupova Moxinur Farxod qizi
HUDUDLAR INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 48
Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich
DAVLAT XARIDLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 53
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich
«ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В УЗБЕКИСТАНЕ» 62
Хайруллаева Малика Шухратжон кизи
EMPIRICAL EVALUATION OF THE FACTORS ASSOCIATED WITH APPLICANT BEHAVIOUR IN HIGHER EDUCATION CHOICE: INDIVIDUAL CUT-OFFS, THRESHOLD HETEROGENEITY, AND THE LIMITS OF AGGREGATE DETECTION 68
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
SANOAT KORXONALARIDA DAVLAT XARIDLARI MOLIYAVIY RISKLARINI BOSHQARISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH 80
Xamdamov Sardor Farmon o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGIGA MARKETING STRATEGIYASI OMILLARINING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (DEA–MALMQUIST–TOBIT MODELI ASOSIDA) 84
Egamov Sevinchbek
NEFT XOMASHYOSIDAN OLINUVCHI YO'L BITUMLARINING ASOSIY KOLLOID-KIMYOVIY VA EKSPLUATATSION XOSSALARIGA ULARNING UGLEVODOROD GURUH TARKIBINING TA'SIRINI TAHLILI 91
Abdullayeva Shoxista, Adizov Bobirjon
THE IMPACT OF LEADERSHIP SUPPORT ON ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS 96
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila

QURILISH MATERIALLARI BOZORIDA TALAB ELASTIKLIGINI MAHSULOT SEGMENTLARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH METODIKASI 103
Turdiyev Abdullo Sagdullayevich
IQLIM RISKLARI VA BANK KREDIT PORTFELI SIFATI: XITOY TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN METODOLOGIK YONDASHUVLAR 110
Nasriyev Farxod
TIJORAT BANKLARIDA OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI (“HAMKORBANK” ATB MISOLIDA) 116
Haydarova Shohista Shuhrat qizi
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 126
Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI 131
Umirov Abdisalom To‘rayevich
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ SOHASIDA IDORALARARO INTEGRATSIYA HOLATI VA UNI TAHLIL QILISH .. 138
Ashirov Jamolbek Shuxrat o‘g‘li
TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING SUN’IY INTELLEKTGA TAYYORGARLIGI VA INTEGRATSIYA DARAJASINI BAHOLOVCHI KOMPOZIT INDEKS (AI-TII) METODIKASI 147
Madrahimova Onajon Javlon qizi
O‘ZBEKISTONDA TEMIR YO‘L SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING AHAMIYATI VA O‘RNI: TALAB, INVESTITSIYA VA INTEGRATSIYA KANALLARI TAHLILI 153
Nazarov Ulug‘bek Akbar o‘g‘li
DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI YAXSHILASH YO‘LLARI 159
Aitimbetob Koyshibek Orazbekovich
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINING HUDUDIY NOMU-TANOSIBLIGI VA 2040-YILGACHA BELGILANGAN MAQSADLI KO‘RSATKICHLARGA ERISHISH MASALALARI 166
Abdimaitov Saidumarxon Mansur o‘g‘li
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАЛИТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В УПРАВЛЕНИИ ОПЕРАЦИОННЫМ РИСКОМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 171
Курбонов Илхом Жумакулович
TA’LIM XARAJATLARI SAMARADORLIGI: XALQARO QIYOSIY TAHLIL VA O‘ZBEKISTON UCHUN INSTITUTSIONAL SABOQLAR 177
Temirov Muhammad Maxmud o‘g‘li
KASE VA UCI INDEKSLARIDA RISK, O‘ZGARUVCHANLIK VA PROGNOZ BARQARORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH 182
Raximov Abduxalil Toshbotirovich
O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK TARMOQLARINING 2030-YILGACHA RIVOJLANISHINI ARIMA VA SARIMA MODELLARI ASOSIDA PROGNOZLASH 192
Xaitova Rushana O‘ktamovna
MINTAQADA AHOLINING TAKROR BARPO BO‘LISHI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN O‘ZARO ALOQASI 196
Saidov Jo‘rabek Nosirxonovich
DAVLAT XARIDLARIDA BUDJET TEJAMKORLIGINI BELGILOVCHI OMILLARNING PANEL EKONOMETRIK TAHLILI 201
Axmedjanov Sardorbek
SUN’IY INTELLEKTNING JAHON MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI: IQTISODIY O‘SISH, BANDLIK VA DAROMADLAR TENGSIZLIGI 206
Sohibov Azizbek, Karimova Komila
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH 211
Axmedov Xasan Ruzibayevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

ТЕРМОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОМЫШЛЕННАЯ ПРОВЕРКА ДЕСУЛЬФУРАЦИИ СТАЛИ 20ГЛ КАЛЬЦИЙ-АЛЮМИНАТНЫМ ФЛЮСОМ КРФ-90 В ИНДУКЦИОННОЙ ТИГЕЛЬНОЙ ПЕЧИ 216
Уразбаев Талгат, Турсунов Нодиржон, Абдуназаров Бахтиёр, Абдухаликов Ердаулет
VELSLASH KLINKER CHIQINDISIDAN QIMMATBAHO METALLARNI KOMPLEKS AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI TADQIQ QILISH 222
Qayumov Oybek, Uzoqov Shaxrizod, Qurbonov Bunyod
MONETAR SIYOSAT SHOKLARINING O‘ZBEKISTON EKSPORTI VA IMPORTIGA ASIMMETRIK TA’SIRI 227
Solijonova Muxlisaxon Azamatjon qizi
YANGI LOGISTIKA MARKAZI ORQALI YUK TASHISHNING TEXNIK-IQTISODIY ASOSLARI 232
Zohidov Muhriddin, Jumayev Sherzod
BANKLARDA SUN’IY INTELLEKTNI MAS’ULIYATLI BOSHQARISH: XALQARO MODELLAR VA O‘ZBEKISTONDA BARQAROR MOLIYAVIY RIVOJLANISH UCHUN MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARII . 240
Mirsoatov Alisher Qudratullayevich
KORXONALARDA EKOLOGIK XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 249
Muxammadjanov Muzaffar Muxammadsolixovich
MAROSIM VA URF-ODATLARDA GASTRONOMIK KONSEPTLARNING LINGVOMADANIY IFODALANISHI 254
Halimova Mahbuba To‘raqulovna
O‘ZBEKISTONDA PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH: NORASMIY BANDLIK VA O‘ZINI O‘ZI BAND QILGANLAR UCHUN IJTIMOIY SUG‘URTA MEXANIZMLARI 259
Oqiljonov Azizjon Olimjon o‘g‘li
DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDAGI MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI ... 265
Sharipov Zafar Bazarovich

DAVLAT BUDJETINING IQTISODIY KATEGORIYA SIFATIDAGI MOHIYATI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Sharipov Zafar Bazarovich
"Mikrokreditbank" ATB
Korporativ biznes departamenti yetakchi menejeri

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati, uning asosiy maqsad va vazifalari hamda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda davlat budjetining daromadlarni shakllantirish, milliy daromadni qayta taqsimlash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi funksiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, budjet mablag'laridan samarali foydalanish, budjet jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda davlat qarzini samarali boshqarish masalalariga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot yakunida davlat budjeti tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, budjet tizimi, budjet siyosati, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, fiskal barqarorlik, davlat qarzi, budjet taqchilligi, moliyaviy nazorat, budjet shaffofligi.

Аннотация: В статье раскрываются сущность государственного бюджета как экономической категории, его основные цели и функции, а также значение в социально-экономическом развитии государства. В исследовании анализируются функции государственного бюджета по формированию доходов, перераспределению национального дохода, обеспечению макроэкономической стабильности, усилению социальной защиты и регулированию экономических процессов. Особое внимание уделено эффективному использованию бюджетных средств, обеспечению открытости и прозрачности бюджетного процесса, расширению финансовых возможностей регионов и эффективному управлению государственным долгом. По результатам исследования разработаны практические предложения по совершенствованию системы государственного бюджета.

Ключевые слова: государственный бюджет, бюджетная система, бюджетная политика, бюджетные доходы, бюджетные расходы, фискальная устойчивость, государственный долг, бюджетный дефицит, финансовый контроль, прозрачность бюджета.

Abstract: The article examines the essence of the state budget as an economic category, its main objectives and functions, and its role in the socio-economic development of the state. The study analyzes the functions of the state budget in generating public revenues, redistributing national income, ensuring macroeconomic stability, strengthening social protection, and regulating economic processes. Particular attention is paid to the efficient use of budgetary funds, transparency and openness of the budget process, strengthening the financial capacity of regions, and effective public debt management. Based on the findings, practical recommendations for improving the state budget system are proposed.

Keywords: state budget, budget system, budget policy, budget revenues, budget expenditures, fiscal sustainability, public debt, budget deficit, financial control, budget transparency.

KIRISH

Hozirgi globallashuv, iqtisodiy noaniqliklar va raqobat kuchayib borayotgan murakkab sharoitda har qanday suveren davlatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy xavfsizligi va makroiqtisodiy turg'unligi uning bosh moliyaviy hujjati – Davlat budjetining qay darajada oqilona tuzilganligi hamda samarali ijro etilishiga bevosita bog'liqdir. Davlat budjeti shunchaki daromadlar va xarajatlar ro'yxati yoki buxgalteriya balansi emas, balki jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi yirik iqtisodiy kategoriya, davlatning strategik vazifalarini amalga oshiruvchi qudratli moliyaviy vositadir.

Xususan, hozirgi sharoitda iqtisodiy o'sishini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiyotini intensiv rivojlantirish kursiga o'tish bo'yicha boshlangan islohotlar davlat budjeti oldiga yangi vazifalarni yuklamoqda. Xususan, 2030-yilga qadar davlat moliyasi tizimida fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish vazifalarning belgilanishi[1], bir tomondan, davlat budjeti daromad va xarajatlarini muvozanatli boshqarishni;

1 'O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli

ikkinchi tomondan, tadchillik hamda davlat majburiyatlarini samarali boshqarish bilan bog‘liq islohotlarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda haqli ravishda ta’kidlanganidek, budjet munosabatlari moddiy ne’matlarni qayta taqsimlash jarayonida yuzaga keladigan obyektiv iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Shu boisdan davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyatini ochib berish, uning maqsad va vazifalarini ilmiy jihatdan asoslash hamda amaliyotdagi qo‘llanilish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida budjet mablag‘larining shaffofligi, natijadorligi va manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati, uning jamiyatdagi daromadlarni qayta taqsimlashdagi o‘rni hamda fiskal siyosatni amalga oshirishdagi ahamiyati iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo‘yicha xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan davlat xarajatlari, soliqqa tortish, fiskal siyosat, budjetlararo munosabatlar va davlat moliyasining samaradorligi bilan bog‘liq keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Davlat moliyasining nazariy asoslarini o‘rganishda Richard A. Musgrave tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olim “The Theory of Public Finance” asarida davlat moliyasining asosiy funksiyalarini resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘laydi. Musgrave yondashuvida davlat budjeti faqat davlat daromadlari va xarajatlarini aks ettiruvchi moliyaviy reja emas, balki iqtisodiy resurslardan foydalanish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Richard A. Musgrave va Peggy B. Musgrave tomonidan ishlab chiqilgan davlat moliyasi konsepsiyasida ham budjetning taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyalariga katta e’tibor qaratilgan. Mualliflar davlat xarajatlari orqali jamiyat uchun muhim bo‘lgan tovar va xizmatlarni moliyalashtirish, daromadlar tengsizligini yumshatish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatlarini asoslab bergan. Ushbu yondashuv davlat budjetining ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini birgalikda tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Joseph E. Stiglitz davlat moliyasi masalasini bozor mexanizmining cheklangan imkoniyatlari bilan bog‘liq holda tadqiq etgan. Uning “Economics of the Public Sector” asarida davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki, bozor muvaffaqiyatsizliklari, jamoat tovarlari, tashqi ta’sirlar, ijtimoiy tengsizlik va davlat xarajatlari masalalari keng yoritilgan. Stiglitzning qarashlariga ko‘ra, davlat budjeti orqali amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat bozor mexanizmi yetarli darajada ta’minlay olmaydigan ijtimoiy va iqtisodiy natijalarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Wallace E. Oates tadqiqotlarida davlat moliyasining hududiy jihatlariga, xususan, fiskal federalizm va budjet vakolatlarini turli boshqaruv darajalari o‘rtasida taqsimlash masalalariga e’tibor qaratilgan. Oatesning “Fiscal Federalism” asarida davlat moliyasini markaziy va mahalliy boshqaruv darajalari o‘rtasida taqsimlashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Mazkur yondashuv davlat budjetining markaziy va mahalliy budjetlar bilan o‘zaro bog‘liqligini, hududiy rivojlanishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda budjet vakolatlarini taqsimlash masalalarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Vito Tanzi va Ludger Schuknecht davlat xarajatlarining tarixiy o‘sishi va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy natijalarini tadqiq qilgan. Ularning “Public Spending in the 20th Century: A Global Perspective” asarida rivojlangan mamlakatlarda davlat xarajatlarining uzoq muddatli o‘zgarishi tahlil qilingan hamda davlat sektorining iqtisodiyotdagi hajmi bilan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganilgan. Ushbu tadqiqot budjet xarajatlarini faqat hajm jihatidan emas, balki ularning natijadorligi va iqtisodiy samarasi nuqtayi nazaridan baholash zarurligini ko‘rsatadi.

A. B. Atkinson davlat xarajatlari va daromadlarni qayta taqsimlash masalalarini ijtimoiy tengsizlik nuqtayi nazaridan tadqiq qilgan. Uning ishlarida fiskal siyosatning daromadlar taqsimotiga ta’siri, davlat xarajatlarining ijtimoiy yo‘naltirilganligi va tengsizlikni kamaytirish imkoniyatlari yoritilgan. Bu yondashuv davlat budjetining ijtimoiy funksiyasini, xususan, aholining turli qatlamlari o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlarini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Peter S. Heller davlat xarajatlarini rejalashtirish va budjet siyosatining rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unligini o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida budjet resurslarini iqtisodiy va ijtimoiy ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish, xarajatlarning samaradorligini oshirish hamda fiskal siyosatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash masalalariga alohida e’tibor berilgan. Ushbu qarashlar davlat budjetini strategik rejalashtirish bilan bog‘liq holda o‘rganish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda davlat budjeti masalasi fiskal barqarorlik, davlat qarzini boshqarish, budjet shaffofligi

Farmoni // URL: https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769

va xarajatlar samaradorligi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqilmoqda. Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan ishlab chiqilgan fiskal shaffoflik va davlat moliyasini boshqarish bo‘yicha yondashuvlarda budjet ma’lumotlarining ochiqligi, fiskal risklarni aniqlash, davlat qarzini boshqarish va budjet siyosatining barqarorligini ta’minlash muhim yo‘nalishlar sifatida qaraladi.

Jahon banki tadqiqotlarida ham davlat xarajatlarining natijadorligi, davlat moliyasini boshqarish sifati, budjet mablag‘laridan samarali foydalanish va davlat xizmatlarini moliyalashtirish masalalariga katta e’tibor berilgan. Mazkur tadqiqotlar davlat budjetining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini faqat moliyalashtirish hajmi bilan emas, balki ajratilgan mablag‘larning natijadorligi, maqsadliligi va boshqaruv sifati bilan birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili davlat budjetini uch asosiy nuqtayi nazardan o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Birinchidan, budjet davlat moliyasining markaziy kategoriyasi sifatida daromadlarni shakllantirish va qayta taqsimlash mexanizmi hisoblanadi. Ikkinchidan, budjet fiskal siyosat orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, budjet xarajatlarining ijtimoiy va iqtisodiy natijadorligi davlat moliyasini boshqarish sifatining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shu jihatdan davlat budjetining mohiyati va vazifalarini tadqiq etishda uning taqsimlash, tartibga solish, ijtimoiy va nazorat funksiyalarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda davlat budjetining iqtisodiy mohiyati va funksiyalariga oid ma’lumotlar ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda rasmiy statistik manbalardan olindi. Yig‘ilgan ma’lumotlar qiyosiy, tizimli va mantiqiy tahlil usullari asosida o‘rganilib, budjetning daromad va xarajatlari, taqsimlash hamda ijtimoiy funksiyalari baholandi. Ma’lumotlarni saralash, tizimlashtirish va tahlil qilish jarayonida sun’iy intellekt vositalaridan ham foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat budjeti iqtisodiy kategoriya sifatida moliyaning umumiy tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Moliyaviy munosabatlarning alohida tarixiy va funksional shakli bo‘lgan budjet muayyan iqtisodiy subyektlar (davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, uy xo‘jaliklari) o‘rtasidagi pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu munosabatlar o‘z tabiatiga ko‘ra taqsimot xarakteriga ega bo‘lib, yalpi ichki mahsulot (YaIM) va milliy daromadni taqsimlashda bevosita ishtirok etadi.

Kategoriya sifatida davlat budjeti ikki tomonlama obyektiv xususiyatga ega: birinchidan, u markazlashtirilgan pul fondini yaratish jarayoni bo‘lib, davlatning konstitutsiyaviy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan resurslarni jamlaydi; ikkinchidan, ushbu resurslarni jamiyat va davlat ehtiyojlari uchun taqsimlash hamda qayta taqsimlash mexanizmidir. Markazlashgan fond sifatida u milliy daromadning muayyan qismini jamg‘arish va iste’mol qilish fondlariga yo‘naltirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tarixiy nuqtayi nazardan, budjet davlatning paydo bo‘lishi va uning funksiyalarining kengayib borishi bilan birga rivojlanib kelgan. Dastlabki davrlarda budjet asosan monarx saroyi va armiya ehtiyojlarini qoplashga qaratilgan tor doiradagi smeta xarakteriga ega bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy bozor iqtisodiyotida u makroiqtisodiy tartibga solishning, ijtimoiy himoyani ta’minlashning va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning asosiy dastagiga aylandi.

Iqtisodiy nazariyada budjet kategoriyasining mohiyatini ochib berishda bir nechta yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar uni sof moliyaviy-texnik vosita sifatida talqin etishsa, aksariyat zamonaviy tadqiqotchilar uni jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ishlab chiqarish munosabatlarining moliyaviy ifodasi deb baholaydilar. Darhaqiqat, budjet orqali davlat o‘zining iqtisodiy siyosatini yuritadi, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini muvozanatga keltiradi.

Davlat budjetining asosiy maqsadi jamiyat va davlat oldida turgan strategik vazifalarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat. Bu maqsadlar bir nechta yo‘nalishlarga bo‘linadi:

- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash: inflyatsiyani jilovlash, milliy valyutaning barqarorligini saqlash va budjet taqchilligini xavfsiz darajada ushlab turish;
- Ijtimoiy himoya va aholi turmush darajasini oshirish: ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohalarini moliyalashtirish orqali aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Infratuzilmani rivojlantirish: transport, logistika, energiya va kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish orqali biznes muhitini yaxshilash;
- Hududlarning mutanosib rivojlanishi: qishloq tumanlari va chekka hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, markaz va hududlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartirish.

O‘zbekistonning strategik rivojlanish dasturlariga muvofiq, davlat budjeti mablag‘larini taqsimlashda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda:

Budjet xarajatlarining salmoqli qismi har yili ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlariga yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish, maktablar infratuzilmasini yaxshilash, zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish hamda tibbiyot muassasalarini dori-darmon va zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash strategik vazifa hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi sharoitida resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh va shamol elektr stansiyalari) rivojlantirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini budjetdan mablag‘ bilan ta’minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat ishtirokidagi korxonalarning rolini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo‘l ochish uchun soliq yukini optimallashtirish, kichik va o‘rta biznesga subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Zamonaviy davlat budjeti nafaqat daromad va xarajatlar rejasi, balki ochiqlik va hisobdorlik vositasidir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda “Ochiq budjet” portalining joriy etilishi, fuqarolarning budjet jarayonlarida bevosita ishtiroki (Tashabbusli budjet) quyidagi natijalarni bermoqda:

- Korrupsiyaviy xavflarning oldini olish: har bir so‘mning sarflanishi jamoatchilik nazoratida bo‘lishi;
- Mablag‘larning manzilli yetib borishi: joylardagi eng dolzarb muammolarni (maktablarni ta’mirlash, ichimlik suvi, yo‘llarni qurish) aholining o‘zi hal qilishi;

Fiskal intizomni kuchaytirish: davlat qarzi va xarajatlarini qattiq nazorat qilish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjetining asosiy maqsadlari va strategik yo‘nalishlari mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan. Budjet siyosatining ochiqligi, ijtimoiy yo‘naltirilganligi va strategik rejalashtirishga asoslangani kelgusida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratadi. Davlat budjetining faoliyati aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyoti strategiyasidan, iqtisodiy va ijtimoiy ustuvorliklardan kelib chiqadi. Budjet siyosatining bosh maqsadi — makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlagan holda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, aholining farovonligini oshirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirish va mamlakat xavfsizligini kafolatlashdan iborat.

Ushbu bosh maqsadga erishish uchun bir qator strategik va joriy maqsadlar belgilanadi:

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash. Bu inflyatsiya darajasini maqsadli ko‘rsatkichlarda ushlab turish, milliy valyuta barqarorligini ta’minlash, davlat budjeti taqchilligining yalpi ichki mahsulotga nisbatan xavfsiz darajada bo‘lishini nazorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy yo‘naltirilganlikni so‘zsiz ta’minlash. Inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini yetarli darajada moliyalashtirish orqali aholining turmush sifatini yuksaltirish va kambag‘allikni qisqartirish.

Uchinchidan, hududlarning mutanosib iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash. Orqada qolayotgan tuman va hududlarni infratuzilma bilan ta’minlash, investitsion jozibadorligini oshirish orqali hududiy tafovutlarni qisqartirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish.

To‘rtinchidan, innovatsion iqtisodiyotni va “yashil” energetikani rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini moliyaviy ta’minlash, raqamli transformatsiyani tezlashtirish.

Davlat budjeti o‘zining iqtisodiy tabiatiga ko‘ra bir nechta muhim vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar uning mohiyatini amalda namoyon etadi va davlatning iqtisodiy siyosatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Bu budjetning eng asosiy va fundamental vazifalaridan biri bo‘lib, milliy daromad va YaIMni mamlakat miqyosida tarmoqlar, hududlar va aholi qatlamlari o‘rtasida qayta taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Soliqlar, yig‘imlar va majburiy to‘lovlar orqali daromadlar jamlanib, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga nafaqalar, pensiyalar shaklida, shuningdek, budjet tashkilotlarini (maktablar, shifoxonalar, ilmiy muassasalar) saqlashga yo‘naltiriladi. Qayta taqsimlash mexanizmi orqali bozor iqtisodiyotining tabiiy nuqsonlari (daromadlarning keskin tabaqalashuvi) yumshatiladi.

Budjet mablag‘larini shakllantirish va sarflash jarayoni qat’iy moliya-iqtisodiy nazorat ostida amalga oshiriladi. Nazorat vazifasi iqtisodiyotdagi pul oqimlarini kuzatib borish, soliq intizomiga rioya etilishini ta’minlash, budjet mablag‘laridan maqsadli, tejamkor va samarali foydalanishni tekshirish imkonini beradi. Moliyaviy nazorat davlat xazinaligi, Hisob palatasi va maxsus idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat budjeti soliq stavkalari, investitsiya xarajatlari, subsidiyalar, dotatsiyalar va davlat kafolatlari orqali iqtisodiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini (masalan, qishloq xo‘jaligi, yuqori texnologiyalar, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish) qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlari jadallashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining budjet tizimi unitar davlat tuzilishiga asoslangan bo‘lib, u Respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oladi. Budjet tizimining barqaror ishlashi qator fundamental prinsiplarga tayanadi:

Budjet tizimining yagonaligi — yagona qonunchilik bazasi, yagona pul tizimi va yagona moliyaviy siyosat bilan

ta’minlanadi.

Budjetlarning o‘zaro bog‘liqligi va mustaqilligi — har bir darajadagi budjetning o‘z daromad manbalari va xarajat vakolatlariga ega bo‘lishi.

Budjet jarayonining oshkoraligi — budjet loyihalari va ularning ijrosi haqidagi ma’lumotlarning jamoatchilik uchun ochiqligi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda davlat budjetini shakllantirishda xalqaro standartlarga o‘tish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “Ochiq budjet” axborot portallari orqali fuqarolarning budjet jarayonlarida bevosita ishtiroki ta’minlanmoqda. Budjet mablag‘larining natijadorligini oshirish, davlat qarzini samarali boshqarish, soliq bazasini kengaytirish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish budjet siyosatining ustuvor vazifalari bo‘lib qolmoqda.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, davlat moliyasining tarkibiy qismi sifatida davlat budjeti 4 asosiy sifat belgilari bilan tavsiflanadi:

- Budjet davlat qo‘lida milliy daromadning bir qismini jamlash va ijtimoiy ehtiyojlar uchun undan foydalanish bilan bog‘liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;
- Budjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning o‘ziga xos shakli sifatida imperativ xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlari hisoblanadi;
- Budjet orqali milliy daromadni ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim sohalari o‘rtasida, iqtisodiyot tarmoqlari ichida, ijtimoiy faoliyat sohalari o‘rtasida, mamlakat hududlari o‘rtasida qayta taqsimlash amalga oshiriladi;
- Budjetning taqsimlash sohasi davlat moliyasida muhim rol o‘ynaydi.
- E’tirof etilishicha, budjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:
- budjet universal moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo‘nalishlarini to‘la qamrab oladi;
- budjet boshqa turdagi moliyaviy rejalarga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

Yuqoridagi fikrda davlat budjetining yana bir xususiyati yoritib berilgan. Xususan, unda asosiy urg‘u yaxlit davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning moliyaviy manbai bo‘lishi bilan bir qatorda, har bir hudud kesimida amalga oshirilayotgan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda davlat budjetining tarkibiy elementi hisoblanuvchi mahalliy budjetlarning ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, davlat budjetining davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy instrumenti sifatidagi xususiyatlari yoritib berilgan.

Davlat budjeti va milliy iqtisodiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikning yana bir elementi sifatida budjet xarajatlarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, davlat budjeti xarajatlari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiyotga ta’sir etishi mumkin. Ma’lumki, davlat budjeti xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko‘ra joriy va kapital xarajatlarga turkumlanib, ular umumiy xarajatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat budjeti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholi farovonligini oshirish va ustuvor tarmoqlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning muhim vositasi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari budjetning daromadlarni shakllantirish, qayta taqsimlash, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish, fiskal barqarorlikni ta’minlash va budjet jarayonining ochiqligini yanada kuchaytirish muhim vazifalar bo‘lib qolmoqda.

Davlat budjeti tizimini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Budjet daromadlari manbalarini kengaytirish va ularning barqarorligini ta’minlash orqali davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini kuchaytirish;
- Budjet xarajatlarini natijadorlik tamoyili asosida rejalashtirish va ajratilgan mablag‘larning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini muntazam baholab borish;
- “Ochiq budjet” mexanizmlarini takomillashtirish hamda fuqarolarning budjet mablag‘larini shakllantirish va taqsimlash jarayonidagi ishtirokini kengaytirish;
- Davlat qarzi va budjet taqchilligini samarali boshqarish, fiskal risklarni muntazam baholash hamda uzoq muddatli fiskal barqarorlik ko‘rsatkichlarini kuchaytirish;
- Mahalliy budjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan budjetlararo transfertlar mexanizmini takomillashtirish;
- Budjet jarayonida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishni kengaytirish orqali moliyaviy monitoring, prognozlash va nazorat samaradorligini oshirish;
- Budjet mablag‘laridan maqsadli va tejamkor foydalanishni ta’minlash uchun moliyaviy nazorat va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini yanada rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi // URL: https://lex.uz/docs/-2304138
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.
3. Vaxobov A. V., Malikov T. S. Moliya: Darslik. – T.: "Noshir", 2019.
4. Malikov T. S., Haydarov N. H. Moliya: Nazariya va amaliyot. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020.
5. Musgrave R. A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. — New York: McGraw-Hill, 1959.
6. Musgrave R. A., Musgrave P. B. Public Finance in Theory and Practice. — New York: McGraw-Hill, 1989.
7. Stiglitz J. E. Economics of the Public Sector. — New York: W. W. Norton & Company, 2000.
8. Oates W. E. Fiscal Federalism. — New York: Harcourt Brace Jovanovich, 1972.
9. Tanzi V., Schuknecht L. Public Spending in the 20th Century: A Global Perspective. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
10. Atkinson A. B. Public Economics in an Age of Austerity. — London: Routledge, 2015.
11. Heller P. S. Understanding Fiscal Space. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2005.
12. International Monetary Fund. Fiscal Transparency Handbook. — Washington, DC: International Monetary Fund, 2018. https://www.imf.org/en/Publications/Manuals-Guides/Issues/2018/04/12/Fiscal-Transparency-Handbook-2018-45756

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100